

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNINING SOLIQ QARZLARINI UNDIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8401519>

*Fiskal institut 3-kurs talabasi Abdurahimov A.Z*

*Ilmiy rahbar: i.f.n. Ergashev I.O*

### **Annotatsiya**

Maqolada YaTT va yuridik shaxslar, shu qatorida Jismoniy shaxslarning soliq qarzini ko'payishi yoki hozirgi ilg'or texnologiyalar asosida Boqimadalarning kamayganligi tahlil qilindi. Boqimanda ya'ni soliq to'lovchilarnini soliqlarni to'lamasligi haqida chet-el davlatlari bilan solishtirilgan hamda soliq qarzini kamaytirish va ularni samarali undirish mexanizmlarini takomillashtish haqida taklif va xulosalar berilgan.

### **Kalit so'zlari**

YaTT, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, daromad solig'i, daromad, soliq qarzi, boqimanda.

### **Аннотация**

В статье проанализировано увеличение налоговой задолженности частных лиц и юридических лиц, в том числе физических лиц, или снижение налогов на основе современных передовых технологий. Иными словами, сравнивается неуплата налогов налогоплательщиками с зарубежными странами, а также приводятся предложения и выводы по снижению налоговой задолженности и совершенствованию механизмов ее эффективного сбора.

### **Ключевые слова**

ЮТТ, Физическое лицо, Юридическое лицо, Налог на прибыль, доходы, налоговая задолженность.

### **Abstract**

The article analyzed the increase in the tax debt of private entities and legal entities, including natural persons, or the decrease of taxes on the basis of current advanced technologies. In other words, taxpayers' non-payment of taxes is compared with foreign countries, and proposals and conclusions are given to reduce tax debt and improve mechanisms for their effective collection.

### **Key words**

YTT, Individual, Legal entity, Income tax, income, tax debt.

### **KIRISH.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar davlat iqtisodiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi. O'zbekistonda o'tgan 3 yillik davomida chiqarilayotgan soliq qonunchiligiga oid hujjatlar, xususan, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947, 2020 yil 30 oktyabrdagi PF- 6098-sonli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-sonli qarorlari asosida soliq ma'muriyatichiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliq yukini kamaytirish hisobiga tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish, yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish va investitsiya muhitini yaxshilash chora tadbirlari belgilanib, mazkur yo'naliшlar bo'yicha davlat byudjetiga soliq tushumlarini to'liqligini ta'minlagan holda soliq hisobotlarini soddalashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hammamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining katta qismi soliqlar hisobiga shaklanadi. Soliqning o'z vaqtida va to'la hajmda undirilishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini hamda ijtimoiy-iqtisodiy va mudofaa qudratining oshishini ta'minlaydi. Shuningdek, byudjetga hisoblangan soliqlarning o'z vaqtida to'liq undirilishi respublika va mahalliy hokimiyat organlari zimmasidagi ichki va tashqi majburiyatlarning bajarilishida muhim ahamiyatga egadir. So'nggi yillarda, aniqrog'i pandemiya davrida aholi va tadbirkorlarni ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab quvvatlash maqsadida yuzaga kelgan soliqlar va soliq qarzlarga imtiyozlar va preferensiyalar berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab- quvvatlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5996-sonli farmonlari bilan kichik tadbirkorlik subyektlari mol-mulk va yer soliqlaridan, va mazkur soliqlardan kelib chiqgan penya va jarimalardan ozod qilindi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar va majburiy to'lovlarini o'z muddatida va to'liq hajmda to'lamasligi natijasida qarzdorlik yuzaga keladi. Soliq qarzdorligining me'yordan oshib ketishi davlat byudjetining qayta taqsimlanish siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida davlat ijtimoiy ehtiyojlariga, shuningdek iqtisodiyotning muayyan sohalarini qo'llab-quvvatlash, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab qolish imkoniyati kamayadi.

Demak, soliq to'lovchilarning soliq qarzlarini qisqartirish va yangi qarzlarni paydo bo'lishini oldini olish hamda soliqlar va yig'imlarni belgilangan muddatda budjetga kelib tushishini nazorat qilish masalasida soliq tizimida qator yangiliklar ishlab chiqilishi kerak.

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Mazkur tezisi tayyorlashdan oldin, soliq qarzlarini undirish masalalarida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari, fikr, tavsiya va takliflari o'rganilib chiqildi va unga ko'ra, A.Kuznesovning fikricha, soliq to'lovchi davlatning hamkori, buni soliq o'rganlari xodimlari tomonidan tushunib yetmadan, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining soliq savodxonligini oshirib bo'lmaydi.

O.Kalacheva tomonidan soliqqa oid huquqbazarlikka qarshi kurashish orqali aholining soliq madaniyatini oshirish yuzasidan tadqiqot olib borib, soliq madaniyatini oshirishga to'siq bo'layotgan omillar va asosiy muammolarni tadqiq etgan. Amerikalik olim Michael Brostek o'z tadqiqotida soliq qarzini undirilishining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi omillarini ko'rsatib o'tadi, xususan:

- muddatida to'lanmagan soliqlar va yig'implarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o'z ijobiy natijasini beradi

- mamlakatda soliq qarzi summalarining paydo bo'lishiga yo'l qo'yishni oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarzdorliklari kamayishiga olib keladi.

Bundan tashqari, I.G. Vinoxodova ham o'zining ilmiy ishida soliq qarzlarini undirishda soliq qarzi mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlardan mol-mulklarini xatlash jarayonini ko'paytirish samarali natija berishini aytib o'tadi.

A.Jo'rayevning "Davlat budgeti daromadlarini shakllantirishning dolzARB muammolari" mavzusidagi doktorlik tadqiqot ishi davlat budgeti daromadlarini shakllantirish borasidagi muammolarni tahlil qilishga bag'ishlagan. Aynan ushbu tadqiqotda mamlakatimizda ilk bor davlat budgeti soliqli daromadlari ijrosida to'lov intizomi, soliqlarni undirishda budgetga qarz (boqimanda) vujudga kelish holatlari tadqiq qilingan.

Sh.To'raev esa «xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliq yukini davlat byudjetiga to'langan barcha soliqlar va ajratmalar miqdorining xo'jalik subyektining qo'shilgan qiymati miqdoriga nisbati orqali aniqlash maqsadga muvofiqdir» deb yozadi. Bu ta'rifda to'langan yoki hisoblangan soliqlar, qaysi qo'shilgan qiymatga, qaysi davr uchun kabi masalalar ochib ko'rsatilmagan. Ta'rifning mazmunidan hisoblangan ammo, to'lanmagan soliq qarzdorligi soliq yukini hosil qilmaydi degan xulosaga kelish mumkin.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Bugunga kunga kelib, davlat byudjetining tushumlari bo'yicha 88% i soliqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, jami 34 trln 496 mlrd so'm, umumiy 2022-yil uchun prognoz qilingan soliq tushumining 50.3% kelib tushgan.

Hususan, buni O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining davlat byudjetiga tushgan tushumlar bo'yicha taqdim etgan rasmiy statistikasida ko'rishimiz mumkin:

Men ushbu maqolamda soliqlarning o'z vaqtida soliq to'lovchilar tomonidan to'lab berilishini nazorat qilish maqsadida quyidagi takliflarni bermoqchiman:

1.Birinchi o'rinda yuridik shaxslar va YaTTlarga soliq reytingi tizimini joriy qilish kerak. Ya'ni ushbu reyting tizimida soliq to'lovchi soliqlarni o'z vaqtida va to'liq miqdorda davlat byudjetiga o'tkazib berishi orqali uning reytingi yuqorilab boradi, aks holda kamayadi. Reyting 100% shkalada olinib:

85-100% oralig'i - yashil 60-84% oralig'i - sariq

59% dan past oraliq - qizilga ajratiladi.

Quyidagi hollar soliq to'lovchi yuridik shaxslarning va YaTTlarning soliq reytingini oshishini ta'minlaydi:

— Soliq hisobotlarini o'z muddatidan kechiktirmagan holda soliq inspeksiyasiga taqdim etganligi;

— Soliq hisobotlarida va moliyaviy natija bo'yicha hisobotlarida soliq bazasini kamaytirishga olib keluvchi operatsiyalarini bajarmaganligi;

-Chakana savdo va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirdor va YaTT larga hisobot davri ichida fuqarolardan soliq organlariga ular ustida chek bermaslik, terminaldan foydalanmaslik holatlari bo'yicha shikoyat kelib tushmaganligi;

-Soliq summasini to'liq miqdorda soliq to'lash muddati ichida davlat byudjetiga o'tkazib bergenligi;

-Ixtiyoriy ravishda soliqlarni muddatidan oldin to'liq yoki bo'nak to'lovi orqali to'laganligi

Shu jumladan, quyidagi holatlар soliq reytingini kamayashiga olib keladi:

-Soliq hisobotlarini o'z muddatidan kechiktirgan holda yoki qasdan soliq inspeksiyasiga taqdim etmaganligi;

-Soliq hisobotlarida ketma-ket ravishda kamchiliklar yuzaga kelishi;

-Soliqchi-ko'makchi ilovasi yordamida fuqarolar tomonidan hisobot davrida me'yordan ortiq chek bermaslik, terminaldan foydalanmaslik yoki terminalga qimmat sotish yuzasidan shikoyatlar kelib tushishi;

-Soliq summasini to'liq miqdorda o'z muddati ichida to'lamasligi, soliq qarzini vujudga keltirishi;

-Majburiy tartibda bank hisob raqamiga inkasso to'lov topshiriqnomasi qo'yilgani;

-Soliq hisobotlarida va moliyaviy natija bo'yicha hisobotlarida soliq bazasini kamaytirishga olib keluvchi operatsiyalarini qasdan bajarganligi;

Ushbu tizim orqali, soliq to'lovchilar orasida soliq ma'daniyatini shakllantirish, soliq reyting yashil ya'ni yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarga soliq summasidan chegirmalar berish orqali soliqlarni o'z vaqtida to'lashga harakat qilishlariga erishish mumkin. Sariq oralig'ida bo'lgan soliq to'lovchilarga shkalasiga qarab, kommeral soliq tekshiruvi yoki sayyor soliq tekshiruvini tayinlash orqali soliq to'lovchida soliq to'lashda qanday muommolar bo'layotganini o'rganish va kerakli maslahatlarni berish tashkillashtiriladi. Ushbu oraliqdagi soliq to'lovchilarga Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollar uchun soliq preferensiyalari berish orqali, to'lovchining moliyaviy holatiga zarar yetkazmasdan soliqlarni to'liq miqdorda undirish erishish mumkin. Qizil oraliqqa o'tgan soliq to'lovchilarga soliqlarni majburiy undirish choralari ko'rildi. Soliq qarzi va penyalarni to'lamagunga qadar, qator davlat xizmatlaridan foydalanishini cheklash, berilgan imtiyozlarni to'xtatish, qizil oraliqqa tushish holatlari ko'p marta yuzaga kelsa 3-5 yil oralig'ida qator soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqini bermaslik "jazo"lari qo'llaniladi. Keyinchalik bu soliq to'lovchi soliq reytingini yashil ko'rsatkichga chiqmagunicha soliq inspeksiyasi nazoratiga olinadi.

2. Ikkinchi taklifim shundan iboratki, hozirgi kunda qator soliq to'lovchilar, asosan, YaTT va kichik korxonalar buxgalteriya xizmatini yo'lga qo'yagan va soliq munosabatlarini va majburiyatlarini to'liq tushunmasligi tufayli, soliq hisobotlarini topshirish va soliqlarni to'lash singari majburiyatlariga to'liq ahamiyat berishmaydi va buning natijasida soliq qarzi yuzaga keladi. Bunday holatlarni yuzaga kelmasligini oldini olish maqsadida, o'z hohishlari bilan soliqlarni inkasso to'lov topshiriqnomalari bilan yechib olinishini qayta tashkil qilinishi kerak. Ya'ni bunda korxona yoki YaTT o'z hohishi bilan o'ziga qarashli tuman davlat soliq inspeksiyasiga ariza bilan murojaat qilib, barcha soliqlarini o'z muddatida bank hisobvaraqlaridan yechib olinishiga rozilik bildiradilar. Bu tizim soliq to'lovchining huquqi sifatida tan olinib, soliq reytingiga ta'sir ko'rsatmaydi.

3. O'zbekiston Soliq tizimida soliqlarni inkasso to'lov topshiriqnomasi orqali majburiy undirilishini bekor qilinishi kerak. Chunki qator rivojlangan davlatlar soliq tizimini o'rnadigan bo'lsak, ularda korxona bank hisob raqamiga inkasso to'lov topshiriqnomasi qo'yilishi salbiy baholanadi. Masalan, Angliyada soliq qarzi avvalo bankdagi pul mablag'laridan undirish soliq to'lovchilarning moliyaviy ahvolini nochor qilib, keyinchalik to'lov qobiliyatini pasayishiga olib keladi. Natijada, korxona o'zining operativ boshqaruvini moliyalashtira olmaydi, olish

ehtimoli bo'lgan foyda amalga oshmay qolishi mumkin deb hisoblaydilar. Bu tizimni yuqorida aytganimdek, soliq to'lovchining huquqi sifatida berilishi kerak.

4. Shunday holatlar bo'ladiki, soliqlarni qayta hisob-kitob qilinganida soliq to'lovchida ortiqcha to'langan soliq summasi kelib chiqadi. Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra ortiqcha to'langan soliq summasi soliq to'lovchinining boshqa soliqlardan qarzlarini so'ndirishga yo'naltiriladi. Lekin, agar soliq to'lovchida hech qanday soliq qarzi mavjud bo'lmasa, uning talabiga ko'ra qaytarib beriladi. Bu esa amalda ko'p vaqtini va hujjatbozlikni talab qiladi. Navbatdagi taklifim shuki, Soliq Qo'mitasi tarkibida soliq jamg'armasi tashkil qilinishi kerak. Shunday holatlar yuzaga kelganda, soliq to'lovchining roziligi bilan ortiqcha to'langan summa shu jamg'armaga o'tkaziladi. Bu jamg'armaning yana bir afzalliklaridan biri qo'yilgan summaga nisbatan Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasiga nisbatan kunlik foiz summasi qo'shib beriladi. Foiz summasi qo'shib berilishi, soliq to'lovchilardan olinadigan penyalar hisobiga moliyalashtiriladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida"gi PF-5468-sonli farmoni.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5996-sonli farmoni.

4.Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемный, перспективный (региональный аспект) 2016. [Электронный ресурс].

Режим доступа: <http://vasilieva.narod.ru/zhurnal/>

5.Michael Brostek. Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office. -2009. P-27.

6.Виноходова И.Г. Совершенствование практики взыскания задолженности организаций по налогам и сборам. // Научное статья., 2019 г.

7.A. Jo'rayev. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari. Doktorlik ishi. Avtoreferat. T.: 2006-yil.

8.O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb sayti: <http://www.soliq.uz> ma'lumotlari.

9.To'raev SH. «Хо'jalik sub'ektlarining soliq yukini optimallashtirish masalalari». i.f.n., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2007

10.Калачева О.С. Повышение налоговой культуры населения как способ борьбы с налоговыми правонарушениями в России. Бизнес. Образование. Право. Вестник волгоградского института бизнеса, №4 (37). 2016. Подпись – индекс – 38683, Р868